

YANGIYO'L, TOSHKENT SHEVALARIDAGI FONETIK QONUN VA JARAYONLAR

Dosmuxamedova Sevara

O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori Instituti
O'zbek tili tarixi va dialektologiya bo'limi mustaqil tadqiqotchisi
Tel. 99.017-52-44
sevaradosmuhemedova@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Yangiyo'l hamda Toshkent (shaharlari) shevalaridagi fonetik qonuniyatlar ochib beriladi. Fonetik hodisalarning shevadagi holatlari o'rganilib, tahlil qilinadi va misollar keltiriladi.

Kalit so'zlar: Singarmonizm, umlaut, assimilyatsiya, dissimilyatsiya, spirantizatsiya, metateza, reduksiya.

АННОТАЦИЯ

В данной статье раскрываются фонетические закономерности Янгиюльского и Ташкентского диалектов. Изучаются, анализируются и приводятся примеры фонетических явлений в диалекте.

Ключевые слова: Сингармонизм, умляут, ассимиляция, диссимилияция, спирантизация, метатезис, редукция.

ABSTRACT

In this article, the phonetic regularities of the Yangiyul and Tashkent dialects are revealed. Cases of phonetic phenomena in dialect are studied, analyzed and examples are given.

Keywords: Synharmonism, umlaut, assimilation, dissimilation, spirantization, metathesis, reduction.

KIRISH

Bilamizki, o'zbek xalq shevalari tizimida ularni bir butun qilib turadigan tizim bu - fonetik hodisalar tizimi hisoblanadi. Shu o'rinda bir holatga, aniqrog'i, fonetik hodisalarning shevada faolligi yohud kam qo'llanishiga qarab, ularga anqlik kiritib olish kerak. Albatta, fonetik jarayonlarni ilmiy asosda guruhlash uchun ularning faolligi yoki nofaolligini hisobga olish lozim. Shuning uchun bu holatni quyidagicha tarzda guruhlash o'rinnlidir: 1) fonetik qonuniyat¹; 2) fonetik jarayonlar.

¹ Муродова Н. Ўзбек диалектологияси. -Тошкент: Barkamol fayz media, 2019. -B. 38-41.

Doimiy takrorlanib turadigan jarayonlar fanda qonunlar deyiladi. “O‘zbek dialektologiyasi”da ham fonetik qonuniyatlar bor. Ularga: 1) singarmonizm; 2) assimilyatsiya; 3) umlaut qonunlari misol bo‘la oladi. Chunki ular barcha o‘zbek shevalarida faol qo‘llanishi ko‘p bora kuzatilgan.

Yangiyo‘l hamda Toshkent (shaharlari) shevalarida quyidagi fonetik qonunlar uchraydi: 1) singarmonizm; 2) assimilyatsiya; 3) umlaut. Bu uch hodisani fonetik qonunlar deb ko‘rsatilishiga sabab, ular sheva vakillari nutqida u yoki bu darajada uchrab turadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Tarixdan ma’lumki, Yangiyo‘l shahri 1937-yil 1-oktabrda tashkil topgan. 1955-yilda Yangiyo‘l shahri va Yangiyo‘l tumani birlashtirilib, Yangiyo‘l tumani deb atalgan. Bu tuman Toshkent shahridan uncha uzoq bo‘lmagan joyda joylashgan. Shuning uchun u Toshkent viloyatining hududi tarkibiga kiradi.

Bu shevaning, ya’ni Yangiyo‘l shevasi haqida batafsil gapirib o‘tishdan oldin unda aniq ko‘rinib, bilinib turadigan quyidagi fonetik qonun va jarayonlarni dialektal matn(lar)da uchrashini, ularda dialektal so‘zlarning bir necha turi borligini ta’kidlashimiz lozim bo‘ladi. Bu fikrimizni quyidagi dialektal matnli misolda ko‘rish mumkin:

Yangiyo‘l shevasidan matn: *Bittə kəshbə pulgə əzgənə tıhtəj bər qayınpələb qərtə-də dostədən yordəm sorəsh uchun işə iuvgə kertə. Eshıgənə taqyllatsa, dostə chıqəb i bılgən körəshbər ketərtə. Uygə takləp qırtə: Kə(r) iugə otvətəz deb. Shundə dostə: Manъ kechbər, iugə təkləfəngə həzər kərətəmən. Lekən bəshqər vəx, əbbəttə otvətə keləmən sənəkəgə”, - deptə. Həzər bər tıhtəjlədən keludəm əldənə. Bə(r) kəshbədən yuz tənə qarz əgəndəm... Ushəni berishim kere. Ozginə qıynəlip qoldim, qolimdə pulim yoq. Shuchun oldingə keganidim”, - depti. Dostı yugurğub iuvgə kərəb ketərtə-də, əchkərədən pul ər chıqər, berərtə. Keyən ortəg‘igə: “əgər yənə shunəqə tıhtəj bər qəsəb, əlbəttə əlləməga kegən, yordəm derəmən”, -deptə-də hələgə pullə ortəg‘iga berəvərərtə. Dostə xursən bər xəyirləshbə ketgənədən hələgə iuvgə egsəb qaytər uygə kərgəndən keyin xərə bərtə-də, rəsə yuvg‘lərdə. Shundə xətənə iya erəm kop pul berəvərərtə shekəllə dep: Hə, bərər nərsənə bəxçnə qırp qəytərvərseym bolərdə-də, deptə. Yoq, sən oyləgənchalımas, dostəm pulgə tıhtəj bər qədənənə bıltədən yuvg‘ləyəppən, u kep sorənəsədən əldən ozəm bərtəb, dostəm bərər nərsədə tıhtəjligin bəmə, dep sorəshəm keregəndi g‘aplatta qədənəmdən əchənəb yuvg‘ləyəppən deptə.*

Yozib olingen bu matnda tovush tushishining so‘z o‘rtasi va oxirida uchrashi ko‘p kuzatilgan. Bu matnda “d” undoshining “t” undoshiga, “b” undoshining esa “p”

undoshiga o‘tishi hodisasi bor. Bu sheva vakillari tub aholi Shahrixon va Qo‘qondan ko‘chib kelib, Yangiyo‘l tumaniga joylashgan qarluq lahjasi vakillari hisoblanadi.

Singarmonizm Yangiyo‘l sheva vakillari nutqida faol qo‘llaniladi. Toshkent dialektida ushbu jarayon nisbatan kam. Singarmonizm lotincha unlilarning uyg‘unlashuvi demakdir. Taniqli tilshunos I.A. Bogoroditskiyning fikriga ko‘ra, singarmonizm unlilar uyg‘unligi, lekin qisman undoshlarga ham taalluqlidir. Bu haqida professor U.Tursunov, X.Doniyorovlar “Ўзбек тиридаги сингармонизм ҳақида” nomli katta maqola yozib, e’lon qilishgan². Singarmonizm qonuni ikki sifat ko‘rinishiga ega: Lingval yoki palatal (tanglay) singarmonizmi. Bu qonuniyatga ko‘ra, so‘zning dastlabki bo‘g‘inida old qator unlilar qatnashgan bo‘lsa, keyingi bo‘g‘inlarda ham old qator unlilar ishtirok etadi, so‘zning dastlabki bo‘g‘inida orqa qator unlilar ishtirok etsa, keyingi bo‘g‘inlarda ham orqa qator unlilar qatnashadi. Bu qonuniyat, ya’ni singarmonizm jarayoni faqat shahar va shahar tipidagi shevalarda amal qilmaydi, ya’ni so‘zning dastlabki bo‘g‘inida *a, y, o, ы(ъ)* unlilaridan biri qatnashsa, keyingi bo‘g‘inlarda ham shu unlilar keladi va so‘zda *q, g, x* chuqur til orqa undoshlari ishtirok qilishi mumkin, aksincha, so‘zning dastlabki bo‘g‘inida *ə, e, u(ъ), θ, ϕ* unlilaridan biri qatnashsa, keyingi bo‘g‘inlarda ham shu unlilar keladi, bunda *k, g* undoshlari kelishi ham mumkin. Singarmonizm qonunining ushbu ko‘rinishi aksariyat turkiy tillarda amal qiladi, ayniqsa, qirg‘iz tilining *temir qonuni* hisoblanadi³ [3, 42-44-]. Buni ikki sheva o‘rtasidagi misollarda ko‘rishimiz mumkin:

Toshkent shevasida nisbatan bor: *ketvõmmän*, *ketvõssän*, *ketvõtti*, *ketvõmizä*, *ketvõsilä*, *ketishvõti*.

Yangiyo‘l shevasida esa bu qonuniyat saqlangan: *ketyappan*, *ketyapsan*, *ketyapti*, *ketyappiz*, *ketiyapsiz*, *ketishyapti*.

O‘zbek shevalarida lab ohangi qonuni so‘zlarning dastlabki ikki bo‘g‘inida qayd qilinishi xarakterlidir, ya’ni odatdagi hol. Uchinchi va to‘rtinchchi bo‘g‘inlarda kam uchraydi. Toshkent shevasida: *bövõtti*, *körvõmizä*, *börvomizä*, *kevõmizä*. Yangiyo‘l shevasida: *bölyäpti*, *köryäppiz*, *böryäppiz*, *kelyappiz*.

Assimilyatsiya shevadagi fonetik qonuniylardan biri bo‘lib, assimilyatsiya so‘zdagi undoshlar tizimida baravar qayd qilinadi, ya’ni so‘zdagi undoshlar bilan bog‘liq fonetik qonuniyatdir. Ushbu shevalarning dialektal matnlaridagi so‘zlarda uchraydigan assimilyatsiya dastlab progressiv va regressiv assimilyatsiyaga,

² Турсунов У., Дониёров Х. Ўзбек тиридаги сингармонизм ҳақида // Алишер Навоий номидаги Ўзбек Давлат университетининг асарлари. - Самарқанд, 1959. -В. 37-44.

³ Чокошева Б.С. Башталғыч класстарда кыргыз тилин текстке байланыштуу окутуунун технологиясын моделдештируу. -Бишкек, 2017. -В. 42-44.

so‘ng to‘liq va to‘liqsiz assimilyatsiyaga bo‘linadi. Progressiv assimilyatsiyada oldingi tovush keyingi tovushni o‘ziga singdirsa, regressiv assimilyatsiyada keyingi tovush oldingi tovushni o‘ziga o‘xshatadi. To‘liq assimilyatsiyada so‘zdagi o‘zaro bir-biriga singib ketadigan undosh tovushlar tushuniladi. Misol: *syvvə* (*suvvi-Toshk.*) *kitob – kitoppi, daftar - daftarri.*

Umlautda, ya’ni bu fonetik qonuniyat tilshunoslik fanida unlilarning regressiv assimilyatsiyasi deb ham yuritiladi. Bu qonuniyatga ko‘ra, so‘zga qo‘shiladigan qo‘sishimchadagi old qator unlisi asosdagi (u aksariyat hollarda bir bo‘g‘inli bo‘ladi) so‘zdagi orqa qator unlini o‘z xarakteriga moslashtirib oladi: Misol: *son – sənə, üosh – üəshə.*

Yangiyo‘l hamda Toshkent (shaharlari) shevalaridan yozib olingan dialektal matnlarda nutqiy sharoit, nutqiy imkoniyatga qarab, doim takrorlanmaydigan, ammo o‘zbek xalq shevalarida nisbatan faol qo‘llanishi mumkin bo‘lgan quyidagi fonetik jarayonlar uchraydi:

1) Dissimilyatsiya; 2) Spirantizatsiya; 3) Spontan o‘zgarishlar (jaranglashish); 4) Metateza; 5) Reduksiya. Albatta, bu fonetik jarayonlar “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” materiallarida juda kam bo‘lsa ham uchraydiki, bu hol ham ularning asosan sheva vakillari nutqida uchrashini tasdiqlaydi. Quyida ularga izoh berib, misollar keltirib o‘tishga harakat qilamiz.

Dissimilyatsiya jarayoni so‘z tarkibidagi undoshlarning boshqa tovush ta’sirisiz o‘xhash tovushga, ya’ni tovush variantiga ega bo‘lishi dissimilyatsiya hodisasini anglatadi. Quyidagi misollarda undosh sonorlar (r//l) o‘zaro o‘rin almashgan: *devor – devəl, birorta – bironta (ror-ron), zarur – zaril (ur-il), maqta – maxta (maqtamoq fe’li), cho ‘ntak – cho ‘nte .*

Spirantizatsiya esa sheva vakillarining nutq jarayonida so‘zdagi portlovchi tovushning sirg‘aluvchi variantiga ega bo‘lishi spirantizatsiya hisoblanadi: *yubordi//yuvordə, sabr qildi// savər qıldə .*

Metatezada, ya’ni ushbu fonetik jarayonda so‘zdagi tovushlar ba’zan o‘zaro o‘rin almashib turadi. Mazkur fonetik jarayon qipchoq shevalarida faol qo‘llanadi: *tuproq // turpoq (dəryə // dəyrə)* Yangiyo‘l shevasida: *qulupnɔy - qulpinɔy, to ‘g‘ramoq – to ‘rg‘amoq.*

Reduksiya jarayonida esa sheva vakillarining nutqidagi so‘zlardan ba’zi bir tovushlarning kuchsiz aytishi kuzatiladi. Bunda unlilar to‘liq aytilmaydi, qisqaroq talaffuz qilinadi: *k(ə)sh(ə), ket(ə)vur, bo ‘libdi – bo ‘(li)pti, shər(ə)p.*

Xulosa qilib aytsak, qiyosiy o‘rganilayotgan Yangiyo‘l va Toshkent (shaharlari) shevalari umumo‘zbek shevalarining ajralmas qismi sifatida o‘ziga xos individual xususiyatlarni jamlay olgan fonetik qonuniyat va fonetik jarayonlarga ega.

REFERENCES

1. Решетов В.В. Кураминские говоры Ташкентской области (фонетические системы, морфологический строй). Диссертация на соискание ученой степени кандидата филологических наук. –Ташкент, 1952. Содиков Т. Лексика говоров Ташкентской области. Филология фанлари кандидати илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. –Тошкент, 1969. Поливанов Е.Д. Образцы фонетических записи Ташкентского диалекта. Блютенъ САГУ. 4. Ташкент, 1924. Поливанов Е.Д. Образцы звуковой состав Ташкентского диалекта. Наука и просвещение, Тошкент, 1922. Шоабдураҳмонов Ш. Тошкент шевасининг хусусиятларидан. ТАМ. Тошкент, 1960. Гуломов Ё. Ф. Тошкент диалектида эгалик қўшимчалари // Ўзбек тили масалалари. САГУ илмий асарлари. Тошкент. 1967. Гулямов Я. Из наблюденной под морфологией Ташкентского говора. ЎзДМ. II. Ташкент, 1957. –В.236-250.
2. Муродова Н. Ўзбек диалектологияси. -Тошкент: Barkamol fayz media, 2019. –В. 38-41.
3. Турсунов У., Дониёров Х. Ўзбек тилидаги сингармонизм ҳақида // Алишер Навоий номидаги Ўзбек Давлат университетининг асарлари. - Самарқанд, 1959. -В. 37-44.
4. Чокошева Б.С. Башталғыч класстарда кыргыз тилин текстке байланыштуу окутуунун технологиясын моделдештируу. -Бишкек, 2017. –В. 42-44.
5. Поливанов Е.Д. Образцы звуковой состав Ташкентского диалекта. - Тошкент: Наука и просвещение, 1922. –В.3-9. Поливанов Е.Д. Образцы фонетических записи Ташкентского диалекта. Блютенъ САГУ. 4. Ташкент, 1924. –В.37-58.
6. Содиков Т. Лексика говоров Ташкентской области. Филология фанлари кандидати илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. –Тошкент, 1969. –В.15-36.
7. Тошкент области ўзбек шевалари. –Тошкент, Фан, 1976. 172 bet.